

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
Roman-german filologiyasi fakulteti**

Nemis filologiyasi kafedrası

MUSTAQILISH

MAVZU: *GAP STRUKTURASI XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI*

Bajardi: Karimov J
Tekshirdi: Eshonqulov O

Samarqand 2014

GAP STRUKTURASI XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI

Gapda sintaktik xususiyatlarning o'rganilishi

Gapni struktur jihatdan o'rganish XX asrning o'rtalaridan boshlab rivoj topdi. Shu vaqtdan boshlab amerika va g'arb tilshunosligida struktur tilshunoslik muhim o'rin tuta boshladi. Shunday ishlarning orasida gapni bevosita ishtirokchi (BI)larga ajratish metodini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur metod haqida dastlabki ma'lumot L.Blumfild tomonidan uning "Til" asarida berilgan edi. Biroq BI tahlilining mukammal tavsifi amerikalik tilshunoslar R.Uellz hamda E.Naydalarning tadqiqot ishlarida yoritildi[N.Turniyozov.2010.63].

Gapning so'nggi yillarda struktur xususiyatini semantik xususiyati bilan birga olib borilishi ko'plab ishlarda uchramoqda. Zero, semantik va struktur butunlik gapning to'liq ma'nosini ochib bera oladi. Shuning uchun gap strukturasi ham keng tadqiq qilinmoqda. Yuqorida aytilgan BI metodi professor N. Turniyozov tomonidan ham o'ziga xos yoritib berilgan. BI metodi vositasida berilgan gap dastlab ikkita segmentga ajratiladi. Bu segmentlarning har biri, ikkinchisi bilan bog'liq bo'lishidan tashqari, o'z sathida bir necha bevosita ishtirokchi unurni birlashtirgan bo'ladi. Tahlilning ikkinchi bosqichida avval ajratilgan BI unsurlar yana ikkiga bo'linadi va ana shu tartibda ajralmaydigan unsurlar qolmaguncha tahlil davom ettirilaveradi.

BI tahlili bilan o'zbek tilshunoslaridan professor N. Turniyozov ham o'z ilmiy ishlarida ko'p foydalangan. Gapning struktur semantik xususiyati birgalikda tahlili gapning struktur tahliliga ehtiyoj tug'dirdi. Quyida shunga doir misollarni ko'rib o'tamiz.

Olimning katta aksi / biz bilan ishlaydi. Olimning // katta akasi / biz bilan // ishlaydi. Olimning // katta /// akasi / biz /// bilan // ishlaydi.

Bu yerda gapning BI metodga ko'ra tahlilini gorizontal chiziq asosida ko'rib o'tgan. Bundan tashqari, BI tahlili vertikal chiziq asosida ifodalanishi ham mumkin.

sintagmatik butunlik o'ziga xos BI unsurlari majmuasini taqozo etadi; s) sintagmatik butunliklar ichida kichik sintagmatik guruhlar ham shakllangan.

Gapning BI unsurlarga bo'linishi yuqoridagi taxlit berilsa, uni BI analizi deb ataladi. Ammo zarurat bo'lganda, tahlilni eng kichik BI unsurlarning o'zaro birikib katta BI guruhlarini hosil qilishidan boshlash ham mumkin. Buni BI sintezi deb ataladi.

Ammo mavjud ishlarda BI tahlili mustaqil gaplar materiali asosida talqin etilganini ko'ramiz. Bizningcha uni murakkab sintaktik qurilma materialiga ham bemalol tadbiiq etish mumkin. Fikr isboti uchun quyidagi murakkab sintaktik qurilmaning BI tahliliga e'tibor beraylik:

O'qituvchi keldi, va dars boshlandi.


Keltirilgan murakkab sintaktik qurilmaning tahlili birinchi bosqichida ikki mustaqil gap ajratiladi. Buni formula asosida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$Phs. = P1 + S + P2.$

Tahlilning so'nggi bosqichida esa mustaqil gapning BI tahliliga tayaniladi:

$P1 = N + V; P2 = N + V.$

Tahlil vertikal chiziq asosida olib borilganda quyidagi shajara vujudga keladi:



O'qituvchi keldi, va dars boshlandi.

Shunday qilib, BI tahlili metodi an'anaviy sintaktik tahlil usulidan keskin farqlanishini va gap strukturasi grammatik shakllanishini mukammal darajada aniq ifodalashini ko'ramiz. Bundan tashqari, BI metodi yordamida jumla mazmunidagi noaniqlik va chakashliklarni bartaraf etish mumkin:


Kaznit nelzya pomilovat.

Mazkur gapni ikki xil tushunsa bo'ladi:

O'ldirish kerak emas, shafqat qilsin.

O'ldirish kerak, shafqat qilinmasin.

Mazkur ma'nodagi gaplarning shajaralari



Kaznit nelzya, pomilovat.

Kaznit, nelzya pomilovat.

Keltirilgan jumalarning ma'no ifodasidagi chalkashlik nutq jarayonida ohang vositasida bartaraf etishi mumkin. Biroq yozuvda tinish belgisi ishlatilmaydigan bo'lsa uni tuzatish ancha qiyin kechadi. Shu bois bunday vaziyatda BI tahlili usulining mavqei yanada oshadi.

BI tahlili usulining ham ba'zi nuqsonlari mavjud. Ular jumlasiga bir yo'la ikki va undan ortiq mustaqil gaplarni tahlil etib bo'lmasligini kiritish mumkin. Biroq mazkur kamchiliklar transformatsion tahlilda o'z-o'zidan barham topadi.

Shakl va mazmun munosabatining o'rganilishi

Amerika strukturalizmida BI tahlili metodining ba'zi zaif tomonlarini bartaraf etish va to'ldirish maqsadida transformatsion metod kashf etildi.

BI tahlili metodining quyidagi nuqsonlari yangi metodning yaratilishi uchun zarurat tug'diradi:

- 1. BI tahlili metodi gaplarning ma'no jihatiga kam e'tibor beradi, zotan, u tahlil uchun berilgan jumlaning ishtirokchi unsurlari o'rtasidagi sintaktik aloqalarni ko'rsatib beradi, xolos.*
- 2. BI metodiga ko'ra berilgan jumla tayyorligicha tahlil qilinadi. Masalan, aktiv shakldagi gap berilgan bo'lsa, uning passiv shakldagi qurilma bilan aloqasini ochib bera olmaydi.*
- 3. BI tahlili metodi sintaktik nuqtayi nazardan ichki tub strukturani topish va uning ahamiyatini ko'rsatib berish imkoniyatiga ega emas.*

*Ana shu sabablarga ko'ra transformatsion metod joriy etildi. Uning mualliflari Z.Xarris (*Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре*, 1957) va N. Xomskiylar ("*Sintaktik strukturalar*", 1957) hisoblanadi.*

Transformatsion metod distributiv hamda BI tahlili metodlarining barcha yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu bilan birga, quyidagi shartlari mavjudligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1) muayyan tayanch strukturaga asoslanadi.*

2) berilgan gapning ma'nosini to'liq saqlagani holda sintaktik shaklini o'zgartiradi.

3) tahlil jarayonida jumlaning ma'nosiga ta'sir etmaydigan leksik o'zgarishlar yasay oladi. Masalan, jumлага biror so'zning qo'shilishi yoki tushirilishi:

Malika dars qilayapti – Malikaning dars qilishi - Dars Malika tomonidan qilinishi
Transformatsiyaning turli xil turlari mavjud bo'lib, ulardan nominalizastiya transformatsiyasi, aktiv qurilmaning passiv qurilmaga aylanishi transformatsiyasi, almashinuv transformatsiyasi (substitutitiya), kontaminatsiya hamda konversiya transformatsiyalari ko'p qo'llanadi.

Nominalizastiya transformatsiyasi:

Der Unterricht beginnt—das Beginn des Unterrichts= $N + V - N1 + N2$.

Aktiv qurilmaning passiv qurilmaga aylanishi transformatsiyasi:

Messi schießt das Tor – Das Tor wird vom Messi geschossen: $N1 + V + N2 - N1 + V + d + N2 + V$.

Almashinuv (substitutitiya) transformatsiyasi: Mein Vater und meine Mutter arbeiten in der Schule—Meine Eltern arbeiten in der Schule : $N1 + d + N2 + V + d + N3 - N1 + V + d + N2$.

Kontaminastiya transformatsiyasi:

Es schneit heute. Das ist stärker als gestern-- Es schneit heute stärker als gestern. Bugun qor yog'di. U kechagiga qaraganda kuchliroq—Bugun kechagiga qaraganda kuchliroq qor yog'di:

$N1 + N2 + V - N1 + N2 + d + V = N1 + N2 + d1 + d2 + N3 + V$.

Konversiya transformatsiyasi:

Qizning bu dadil gapi noqulaylikka barham berdi – Qizning bu dadil gapidan noqulaylik barham topdi:

$N1 + d1 + d2 + N2 + N3 + V - N1 + d1 + d2 + N2 + N3 + V$.

Transformatsiya qilish uchun berilgan gap bazal (asos) struktura, hosila (transformatsiya natijasi) esa transforma deb ataladi.

Transformatsiya jarayonida mavhum ma'noli sintaktik qurilmalar, nutq vaziyati bilan mos holda, aniq ma'no kasb etishi mumkin:

Professorning taklifnomasi—Die Einladung des Professors : N1 + N2.

Professorni kimdir taklif qilyapti: N1 + N2 + V.

Professor kimni taklif qilyapti: N1 + N2 + V.

Shunday qilib, transformatsion metod distributiv va BI tahlili usullaridan tubdan farq qilishini ko'ramiz, zotan uning yordamida so'z birikmalari va gap strukturasining sintaktik shakllanishi boshqa gaplar va birikmalar bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi.

Gapning aktual bo'laklari

Praga tilshunoslik maktabida funksional tahlil bobida muhim tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bu sohada, xususan, N.S.Trubetskoy, V.Matezius, A.Martine kabi tilshunoslarning xizmatlari katta bo'ldi. Tilning fonologik tizimi bo'yicha N.S.Trubetskoy muhim natijalarga erishgan bo'lsa, grammatik muammolar bobida V.Matezius, A.Martinelarning lingvistik nazariyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ulardan ayni paytda biz V.Mateziusning lingvistik nazariyasi markazini tashkil etuvchi gapning aktual bo'laklari muammosiga to'xtalmoqchimiz. V.Mateziusning gapning aktual bo'laklari nazariyasini o'zining “O tak nazыvaemom aktualnom chlenemi predlojeniya” (1947) hamda «Osnovnaya funktsiya poryadkaslov v cheshskom yazыke» (1947) asarlarida ilmiy asoslaydi (1).

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi jumlasining muayyan nutq muhitiga munosabati muammosiga asoslanib unda asosiy urg'u jumlaning asosini tashkil etuvchi hamda xabarning yadrosini belgilovchi unsurlarga qaratiladi. Bu jihatdan gapning aktual bo'laklari yosh grammatikachilarning psixologik subekt va psixologik predikat deb nomlagan tushunchalari bilan juda yaqin turadi. Chunki gapning aktual bo'laklari ikkita bo'lib, ularning birini V.Matezius gapning boshlanish nuqtasi yoki “asos” (osnova) deb, ikkinchisini esa “yadro” deb nomlaydi. Bu o'rinda asos deganda nutq muhiti qurshovida tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham ma'lum bo'lgan gap unsuri, yadro deganda esa so'zlovchi asos deb nomlanayotgan ana shu unsur haqida ma'lumot beradigan va jumla orqali ifodalanayotgan xabarning yadrosini tashkil etuvchi unsur tushuniladi. Xabarning

yadrosini psixologik predikat bilan, asosni ega psixologik subekt bilan qiyoslash mumkin.

Gapning aktual bo'laklarga bo'linishi odatdagi gapning sintaktik tahlilidan tubdan farq qiladi. Ma'lumki, formal – sintaktik tahlilda gapning bosh bo'laklari – ega va kesimning va uning ikkinchi darajali bo'laklari – aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabilarning sintaktik vazifalari to'g'risida so'z yuritiladi. Aslini olganda, formal – sintaktik tahlil deb ataluvchi bu nazariya ko'p jihatdan mantiqiy qoidalarga asoslanadi. Gapning aktual bo'laklari nazariyasi esa, aslida u ham mantiqiy qoidalarga asoslansa-da, asosiy e'tiborni jumla komponentlarining kommunikativ jarayonda bajaradigan nutqiy funksiyalariga qaratadi. Masalan, Sobir maktabdan keldi jumlasining aktual bo'laklarga bo'linishiga e'tibor beraylik. Bu o'rinda, agar kimning maktabdan kelganligi nazarda tutilayotgan bo'lsa, Sobir so'zi jumlaning asosi hisoblanadi va maktabdan so'zi jumlaning sanaladi. Sobirning qaerdan kelganligini aniqlash kommunikativ muhit tomonidan talab qilinganda esa maktabdan so'zi jumlaning yadrosi, Sobir so'zi asosi vazifasini bajaradi. Bordi-yu Sobirning nima qilganligi xabar markasini tashkil etadigan bo'lsa, u holda keldi so'zi yadro, Sobir esa asos funksiyasida keladi.

Ko'rinadiki, V.Matezius tomonidan ilmiy asoslangan gapning aktual bo'laklari nazariyasi asosan ikki termin – jumlaning asosi va jumlaning yadrosi orqali ish ko'radi. V.Matezius o'zining dastlabki tadqiqotlarida jumlaning asosiy termini o'rniga “tema” terminidan ham foydalangan. Lekin hozirgi tilshunoslikda “asos” o'rniga “tema”, “yadro” o'rniga esa “rema” terminlari keng qo'llanilmoqda. Bunda tema xabarning so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham avvaldan, hech bo'lmaganda, nutq jarayonida ma'lum bo'lgan qismini, rema esa xabarning markazini tashkil etishi nazarda tutiladi.

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi V.Matezius ta'limoti asosida rus tilshunosligida ham mukammal talqin etildi. Bunda professorlar V.Gak, I.Raspopov, K.Krushelnitskaya va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Rus tilshunosligida gapning aktual bo'lagi tahlilida qo'llanadigan terminlar “dannoe”

va “novoe” kabi yangi terminlar bilan almashtirildi (2). Biroq hozirgi paytda “tema” va “rema” terminlari ko’proq qo’llanilmoqda.

So’nggi yillarda bu sohada N.Slusareva ko’proq tadqiqot ishlari olib bormoqda (3). Ingliz tilshunosligida esa M.Hellidining ilmiy kuzatishlari ahamiyatga molikdir (4).

Gapning aktual bo’laklarini belgilashda jumla tarkibida qo’llanilayotgan ayrim so’zlar ham ahamiyat kasb etadi. Bunday so’zlar, xususan, remani belgilashda alohida o’rin tutadi. Masalan, Sobir ham shu maktabda o’qiydi jumlasida maktab so’zining rema ekanligi qat’iydir. Chunki uning oldidan qo’llanilayotgan shu ko’rsatish olmoshi uni alohida ta’kidlamoqda. Shu bois bu jumlada boshqa so’zning rema vazifasida kelishi imkoniyati cheklanmoqda. Bundan tashqari, ba’zi affikslar ham remani belgilashda muhim mavqe kasb etishi mumkin. Faqat Sobirgina kelmadi.

Berilgan jumlada Sobir so’zi –gina affiksi vositasida mantiqiy urg’u olmoqda va bu uning xabar markazini, yadrosini tashkil etayotganini ko’rsatmoqda.

Shuni ham aytish lozimki, gapning aktual bo’laklari faqat o’zlari qatnashayotgan jumladagina funkstional faollik ko’rsatadi. Shuning uchun ma’lum bir jumlada rema vositasida kelayotgan so’z ikkinchi jumlada temaga aylanib qolishi ham mumkin. Masalan: Komil shu maktabda o’qiydi. Maktab unga juda qadrdon.

Birinchi gapda, albatta, maktub so’zi rema vazifasida kelmoqda. Biroq ikkinchi gapda mazkur so’z tema mavqeidadir, chunki bu gapda xabarning yadrosi qadrdon so’zi bilan belgilanadi. Albatta, bunday bo’lishi tabiiydir, zotan, biz muloqot jarayonida har doim aniqlikdan noaniqlikka qarab boramiz va bunda xabarning markasidagi so’z mantiqiy urg’u bilan belgilanib borilaveradi.

Ko’rinadiki, V.Mateziusning gapning aktual bo’laklari nazariyasi jumlakomponentlarining kommunikativ jarayonda bajaradigan vazifalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunga asoslanib ba’zi tilshunoslar buni funkstional tahlil nazariyasi deb atashmoqdalar. Masalan, N.Slusareva, M.Hellidi kabi tilshunoslarning tadqiqot ishlariga buni kuzatishimiz mumkin.

Mazkur masala ancha izohtalab ko'rinadi. Chunki gapning aktual bo'laklarining o'rni jumla tarkibida barqaror xarakterli emas. Bir gap doirasida kelayotgan so'zlarning barchasi tema vazifasida ham, rema funksiyasida ham kela oladi. Bu, albatta, ularning mantiqiy urg'u olishlari bilan bevosita bog'liqdir. Mantiqiy urg'u esa muayyan bir so'zga so'zlovchi tomonidan va tinglovchi tomonidan turlacha qo'yilishi mumkin. Masalan, so'zlovchi alohida ta'kidlayotgan so'z ba'zan tinglovchilar reaksiya uyg'otmasligi, uning o'rniga tinglovchi boshqa bir so'zni ma'no jihatdan muhimroq deb bilishi ham mumkin. Bu umumiy masalaning bir tomonini taqozo etsa, ikkinchi tomondan, gapning aktual bo'laklari mantiqiy urg'u bilan uzviy bog'liq ekan, tilimizni yana mantiqiy qoidalar iskanjasiga olib kirishi muqarrardir. Chunki remaning belgilanishi mantiqiy urg'usiz bo'lmaydi. Uchinchidan, mazkur nazariyani sintaktik funksiya tushunchasi bilan bog'lash qiyin, zotan, so'zning sintaktik vazifasi muayyan bir gap sathida barqaror bo'ladi. Mazkur nazariyaga muvofiq esa, bir jumla tarkibidagi har bir so'z tema ham, rema ham bo'la oladi. Bu jarayonda, albatta, gapning sintaktik strukturasi o'zgarishsiz qolaveradi.

Gapning aktual bo'laklari nazariyasi xususida V.B.Kasevich ham tanqidiy mulohaza bildiradi. Uning fikriga ko'ra, birinchidan, "aktual bo'laklar" termini to'g'ri tanlanmagan, zotan, bunday bo'laklar faqat gap sathidagi ma'lum bir bo'laklarni (aniqrog'i, gapning faqat ikki bo'lagini) aks ettiradi, gapning umumiy strukturasi tahlili esa nazardan chetda qoladi. Ikkinchidan, tema va rema tushunchalari Aristotelning mantiqda qo'llagan "sub'ekt" va "predikat" terminlarining boshqacha nomlanishidan boshqa narsa emas (5.86).

Albatta, V.Mateziusning "aktual bo'laklari" nazariyasi haqida yuqorida bildirilgan tanqidiy mulohazalar uning ahamiyatini mutlaqo inkor etmaydi. Mazkur nazariyadan foydalanish mumkin. Chunki aktual bo'laklar nomi bilan atalayotgan gap unsurlari semantik nuqtayi nazardan ahamiyat kasb etadi.

1. Ifoda maqsadi. Bu nosintaktik hodisa so'zlovchining maqsadi, kommunikativ niyati bo'lib, shu asosda darak, so'roq, buyruq gaplar hosil qilinadi.

Bir gapni uning sintaktik qurilmasiga ta'sir qilmasdan har xil ohang yordamida darak, so'roq, buyruq gaplarga aylantirish mumkin. Masalan: 1. *Jamshid uyga borsin* (buyruq gap). 2. *Jamshid uyga borsin* (*Jamshid uyga borsin, keyin gaplashamiz* ma'nosida - darak gap). 3. *Jamshid uyga borsin?* (so'roq gap). Gap ohang jihatdan qancha o'zgarmasin, uning qurilishi o'zgarmasdan qolaveradi: [ega+hol+kesim]. Gapning ifoda maqsadini o'zgartuvchi vositalar gap tarkibiga kiritilsa ham, sintaktik qurilishiga putur etkazmaydi (masalan, so'roq olmoshlari, yuklamalar). Demak, birinchi gapdagi buyruq, ikkinchi va to'rtinchi gaplardagi so'roq va uchinchi gapdagi darak ma'nolari mantiqiy kategoriyaning ushbu gaplarda namoyon bo'lgan zarralari- gaplarning sintaktik tabiatiga daxldor bo'lmagan o'zga, begona hodisaning tajallisidir.

2.Modal ma'nolar. So'zlovchining o'z fikriga munosabatini ifodalovchi modal ma'nolar ham gapning sintaktik qurilishiga ta'sir qilmaydi. Masalan, *Shalola kelgan, Shalola kelgandir, Shalola keldi, Shalola, albatta, keldi* gaplarining birinchisida so'zlovchining fikrga betaraf munosabati, ikkinchisida gumonsirash, uchinchisida aniqlik, to'rtinchi gapda fikrning qat'iyligi namoyon bo'lgan. Bunday biror gapdan anglashilgan so'zlovchining munosabati ikkinchi bir gapga ko'chirilsa ham, gaplarning sintaktik tabiati o'zgarmasdan qolaveradi. Yuqorida keltirilgan to'rtta gapning birinchisida qat'iylilik (*Shavkat uyga borsin*), ikkinchisida noaniqlik (+*aylardasan, sevikli erkam*), uchinchisida afsus (/urbat *axtarganga g'urbat ekan bu dunyo*), to'rtinchisida gumon (*Sen ham uni sevasanmi?*) kabi ma'nolar nosintaktik hodisalar sifatida namoyon bo'lgan.

3.Gap bo'laklarining ifodalanish xususiyatlari. Gap bo'laklarining qanday so'z bilan ifodalanganligi leksik hodisalarning gapda voqelangan (tajallilangan) ko'rinishidir. Masalan, bo'laklarning ot yoki fe'ldan ekanligi, leksema yoki frazema bilan ifodalanganligi ham nutqiy sintaktik qurilishni belgilaydi, biroq lisoniy mohiyatga ta'sir qilmaydi. Bunga, deylik, ot bilan ifodalangan bo'lakni olmosh bilan almashtirish asosida (*Nigora maktabga boradi - ega+hol+kesim; U maktabga boradi - ega+hol+kesim*) osongina amin bo'lish mumkin.

4.Murakkablashtiruvchi vositalar. Gap tarkibi undalma, ajratilgan bo'laklar, bo'laklarning uyushishi, kirish va kiritma vositalar yordamida murakkablashadi. Undalma, kirish va kiritmalar gap bo'laklari bilan mazmunan bog'langan, lekin grammatik munosabatga kirishmagan hodisalar bo'lib, gaplarning umumiy sintaktik qurilishini o'zgartirishga qodir emas. Masalan, *+aylardsan, sevikli erkam* gapidagi undalma (sevikli erkam), *Shavkat, so'zsiz, va'dani uddalaydi* gapidagi kirish so'z (so'zsiz), *Tabibning ta'biricha, bu dardga da'vo yo'q emish* gapidagi kirish birikma (*tabibning ta'biricha*), *Shoir (men uni ilgari ko'rmagan edim) rindona ijodkor sifatida taassurot qoldirdi* gapidagi kiritma (*men uni ilgari ko'rmagan edim*) ana shunday nosintaktik hodisadir.

5.Ajratilgan bo'laklar ajralmish bo'laklarning ma'nosini muayyanlashtiruvchi vosita bo'lganligi bois, u o'ziga tegishli bo'lakni mazmunan to'ldiradi. Shu bilan birga, gap strukturasini kengaytiradi. Ajratilgan bo'laklar izohlanayotgan, to'ldirilayotgan bo'lak bilan birgalikda hokim uzvga tobelanadi: 1. a) *U soyda, qo'sh yong'oqning tagida, qorga ko'milib uzoq turdi* - [ega+hol+hol+kesim]. b) *U soyda qorga ko'milib uzoq turdi* - [ega+hol+hol+kesim]. 2. a) *Oshpazning, Mamatqulovning, qo'li shirin ekan* - [aniqlovchi+ega+kesim]. b) *Oshpazning qo'li shirin ekan* - [aniqlovchi+ega+kesim]. Demak, ajratilgan bo'laklar garchi intonastion alohidalikka, mustakillikka ega bo'lsa-da, izohlanmish, to'ldirilmish bilan bir butun holda gap strukturasidan o'rin oladi.

Navbatdagi murakkablashtiruvchi vosita **uyushiq bo'laklar** bo'lib, uyushgan barcha so'zlar gap strukturasidan bitta uzv sifatida o'rin oladi. Masalan, *Serquyosh, hur o'lkam elga baxt-najot* (Madhiyadan) gapidagi uyushgan ikkita aniqlovchi (*serquyosh, hur*) gap strukturasida bir a'zo sifatida ishtirok etadi. Uyushgan bo'lak yopiq holatda bo'lsa, murakkablashish yanada kuchayadi. *Ariq bo'yida loyga belanib o'ynayotgan bolalar, atrofda mudrab yotgan olapar, quyosh nurida jimir-jimir qilayotgan suv o'ziga xos ajib uyg'unlik kasb etgan edi*. Bu gapdagi *bolalar, olapar, suv* so'zlari aniqlovchilari bilan birgalikda yoyiq uyushiq bo'laklarni hosil qilib, yoyiq uyushgan qismli bir butunlik sifatida namoyon bo'lgan.

Gap aytilgan tajallilardan xoli qilinsa, nisbatan umumiy bo'lgan [ega + kesim], [ega + to'ldiruvchi + kesim], [ega + to'ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to'ldiruvchi + hol + kesim] kabi qoliplar qoladi. Lekin bu beshta gap bo'lagining, shuningdek, bu gap bo'lagining bittasi, goh ikkitasi yoki uchtasining va h. tushirilgan holdagi ko'rinishlari kombinastiyasidan yuzdan ortiq qoliplar tuzish mumkin bo'ladi. Bizning oldimizda esa gapning nisbatan eng yuqori va umumiy qolipini tiklash vazifasi turibdi. Demak, keltirilgan gap qoliplaridagi farqlardan voz kechib, umumiyliklarni saqlash asosida qolipni tiklashning ikkinchi bosqichini amalga oshirishimiz lozim.

+qolipni tiklashning ikkinchi bosqichida yuqorida nosintaktik - gapning lisoniy qurilishiga ta'sir etmaydigan tajallilardan xoli qilingan [ega + kesim], [ega + to'ldiruvchi + kesim], [ega + to'ldiruvchi + hol + kesim], [aniqlovchi + to'ldiruvchi + hol + kesim] qoliplaridagi farqlar nazardan soqit qilinadi. Natijada yagona umumiylik sifatida **kesim** unsuri ajralib chiqadi. Kesim esa har doim mustaqil so'z va kesimlik shakllaridan iborat bo'lganligi bois uni shartli ravishda «atov birligi+kesimlik qo'shimchasi» yoki [WPm] (W-inglizcha *word*, Pm esa *predikat* va *marker* so'zlarining bosh harflaridir) shartli belgisi bilan belgilaymiz. [WPm] sodda gaplarning eng umumiy belgisi bo'lib, u barcha sodda gaplarda voqelanadi. Boshqa gap bo'laklarining birortasi gapda bo'lmasligi mumkin, lekin kesimning bo'lmasligi mumkin emas. Lisoniy sathda [WPm] bir necha oraliq ko'rinishlarga ham ega bo'ladi. O'zbek tilida grammatik shakllangan sodda gaplarning turlarini lisoniy va nutqiy sath yaxlitligida quyidagicha tasvirlash mumkin:

Mazmuniy sintaksisning o'rganilishi

Elmslev bunda barcha tillar uchun umumiylik mavjudligini ko'radi. Ma'no ifodasining materiali umumiylikka ega ekanligi va uni substanstiya tushunish lozimligi, ammo ma'noning tillarda ifodalanishi shakllari (formasi) bir xil emas. Bitta grammatik ma'noni bir necha shakl berishi mumkin, o'z navbatida bitta shakl bir necha grammatik ma'nodan iborat bo'lishi mumkin.

Derevatsiya

I.N.Murzin sintaktik derevatsiya hodisasini, asosan, gap misolida o'rganadi. Uning tadqiqotlarida sintaktik derevatsiya deganda biror tayanch gap asosida ikkinchi strukturaning shakllanishi tushuniladi (4,10). I.P.Raspopov ham sintaktik derevatsiya hodisasini I.N.Murzin kabi tushunadi va bunda transformatsiya hodisasi ustuvor ahamiyat kasb etishini, uning natijasi derivatsiyaga olib kelishini ta'kidlaydi.

V.S.Xrakovskiy tadqiqotlarida esa derivatsiyaga transformatsiyadan farqlanishi aytiladi. Kovskiyning fikriga ko'ra derivat (hosila) o'zining grammatik qurilishi jihatidan ham, sintaktik shakli va mazmuniy salmog'iga ko'ra ham farqlanadi. Sintaktik derivatsiya hodisasi haqida aytilgan fikrlar mushtarak emas. Ularning qariyb barchasida birtomonlikka yo'l qo'yilganini kuzatamiz. Masalan, I.N.Murzin, I.P.Raspopovlarning mulohazalariga ko'ra derevatsiya hodisasi transformatsiya hodisasining boshqacha nomlanishidek bo'lib, qolgan bo'lsa, V.S.Xrakovskiyning fikriga ko'ra, transformatsiya va derevatsiya boshqa hodisalar kabi talqin etiladi. Sintaktik derevatsiya hodisasini transformatsiyadan ayri holda tushunish qiyin. Chunki transformatsiya natijasi derevatsiyaga olib kelishi muqarrardir. Masalan: Sobirning bu dadil gapidan o'tirganlar qoniqish hosil qildi. – sobirning bu dadil gapi o'tirganlarni qoniqtirdi.

Bu o'rinda konversiya usuliga asoslangan transformatsiya natijasi derevatsiyaga olib kelmoqda. Lekin bu sintaktik derevatsiya hodisasi voqelanadigan yagona usul emas, chunki ga pyoki so'z birikmasi sintaktik shaklini kengaytiruvchi applikativ usul ham Derevatsiyaga olib keladi:

Sobir keldi – Do'stim Sobir keldi – Do'stim Sobir bugun keldi va h.k.

Shuni ham aytish kerakki, sintaktik derevatsiya har doim hosila strukturani taqozo etar ekan, u ma'lum bir tayanch strukturasiga asoslanadi. Yuqorida berilgan gaplarning birinchisi tayanch strukturadir. Ikkinchi gap anna shu tayanch struktura asosida vujudga kelmoqda. Uchinchi gap uchun esa ikkinchi jumla

tayanch struktura maqomida kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, derevatsiyaning ikkinchi bosqichidan boshlab hosiladan hosila yasalishini ko'rsatadi. Derivastion jarayonning shakllanishida muhim rol o'ynaydigan dastlabki tayanch struktura $N+V$ modelida bo'ladi va bu struktura tub struktura zamirida vujudga keladi. Masalan, Sobir keldi tayanch strukturasi kelmoq tarzida asoslanmoqda.

Tub strukturani mavhum ifodadagi tafakkur strukturasi deb tushunish mumkin (7). Bunday strukturada har doim to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'sh o'rinlar bo'ladi. Bunday bo'sh o'rinlar dastlab tayanch strukturada to'ldiriladi. Masalan, kelmoq tub strukturasi V simvoli bilan belgilasak, unda N va X o'rinlarining bo'shligini ko'ramiz. Birinchi bo'sh o'rin tayanch strukturada to'ldirilayotgan bo'lsa, X bo'sh o'rinlar hosila strukturalarda to'ldirilmoqda: Sobir keldi = $N+V$. Do'stim Sobir keldi = $X + N + V$. Do'stim Sobir bugun keldi = $X1 + N + X2 + V$ va h.k.

Shu narsa xarakterliki, gap sathida X unsur bo'lmasa uni Derevatsiya mahsuli deb bo'lmaydi. Shu bois gap modelidagi X uning hosila ekanligidan dalolat beradi. derevatsiya mahsuli bo'lgan har qanday hosila struktura ham biror operator vositasida ro'y beradi. Boshqacha aytganda, operator bo'lmas ekan, derevatsiya ham voqelanmaydi. Shuning uchun operator derevatsiyaning mutlaq hokim unsuri sanaladi. Masalan, Men universitetda o'qiyman gapining sintaktik derevatsiya mahsuli ekanligi shubhasizdir. Bunda derevatsiya operatori – da affiksi bilan ifodalanmoqda.

Ba'zi hosila strukturalarda operator belgisiz holda vazifa bajaradi: Sobir kitob o'qidi. Bunda derevatsiya operatorining (-ni) belgisiz kelayotganini ko'ramiz. Ayrim jumlalarda esa operator nol ifodali bo'lishi ham mumkin. Masalan, Ahmad ter to'kib ishladi jumlasida ter to'kib (X unsur) va ishladi so'zlari semantik qurshov (distributiya) vositasida bog'lanmoqda. Buni biz nol operator deb nomlaymiz.

Ba'zi derivastion jarayonda operator tanlash imkoniyati ham bo'ladi. Bunday vaziyatda nutq muhiti va so'zlovchining xohishi muhim ahamiyat kasb etadi: Bahor keldi. Gullar ochildi. Ayni vaziyatda berilayotgan ikki tayanch

strukturadan quyidagi qo'shma gaplarning sintaktik derevatsiyalari yasalishi mumkin:

Bahor keldi, va gullar ochildi.

Bahor kelsa, gullar ochiladi.

Bahor kelgach, gullar ochildi.

Birinchi teng komponentli bog'langan qo'shma gapda va operatori, ikkinchi shart ergash gapli qo'shma gapda –sa operatori, uchinchi payt ergash gapli qo'shma gapda –gach operatori faollik ko'rsatmoqda. Ulardan birini tanlash masalasi esa so'zlovchining xohishini hamda muayyan nutq muhiti bilan bog'liqdir.

Ayni paytda har uchala misolda ham transformatsiya usulidan foydalanilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, transformatsiya sintaktik derevatsiyaning ish usullaridan biri ekanligidan dalolat beradi (6).

Shuni alohida qayd etish lozimki, sintaktik derevatsiya nazariyasi tilning nutqqa ko'chirilishi muammolarini o'rganishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala esa hozirgi tilshunosligimizda o'ta dolzarbdir.

Amerika tilshunoslari til strukturasi nazariyasini dastlabki o'rinda gap strukturasi va uning vositasida etkazilayotgan axborot nuqtai nazaridan shakllantirdilar va o'rgandilar.

Binobarin, Z. Harris (Harris 1976: 237-255) gap strukturasi nazariy jihatdan muhim bo'lgan quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etadi:

- 1) so'zlarning gap strukturasi o'rin olishini qat'iy nazorat qiluvchi qoidalar majmuasining mavjudligi;*
- 2) o'zaro sintaktik munosabatdagi so'zlarning matnda qo'llanish tartibining o'zgarishi ehtimoli (bunday o'zgarish matnda mavjud bo'lgan boshqa so'zlar ta'sirida yuzaga keladi);*
- 3) axborot tashish jihatidan muhim va shu sababli matnda qo'llanishi shart bo'lgan ayrim so'zlarning tushib qolishi.*

Muhim xususiyat sifatida qaralayotgan bu xususiyatlarning nisbatan oddiyliги va ularning gap tavsifi uchun etarli ekanligi inobatga olinsa, til

strukturasi uning voqeligi shartlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi hamda bu holda tilning formal tuzilishi haqida biror bir farqni olg'a surishga hojat yo'q.

Sintaktik birikishning o'zgarishlari natijasida yangi gaplar tuzish imkoni yaratiladi va grammatikaning bu xususiyati lug'at tarkibida so'z boyligining so'z yasash hisobidan ko'payishiga o'xshab ketadi.

Sintaktik birikuvning turli darajadagi ko'rinishlari miqdor jihatidan chegaralangan lug'aviy birliklar vositasida har qanday miqdordagi axborotni ifodalash imkonini beradi.

Bunday hodisalarning asosiy xususiyati shundaki, metatil axboroti hech qanday grammatik vositasiz ifodalanishi mumkin. Bu esa tildagi tejamkorlikning bir ko'rinishidir.

Masalan, Der Mann, den ich gesehen habe, ist weg. «Men ko'rgan odam ketdi» gapini quyidagi transformalar hosilasi deb harash mumkin.

- 1) Der Mann ist weg - «Odam ketdi»
- 2) Ich habe den Mann gesehen - «Men odamni ko'rdim»

Ikkinchi gapda aynan birinchi gapdagi shaxs nazarda tutiladi.

Gaplarning shakl va ma'no munosabatida alohida olingan qismining ma'nosi to'liq gap ma'nosiga mos kelishi lozim va faqat shundagina kiritma tuzilmalar hosil bo'ladi. Masalan, Ich hoffe auf die Nachricht «Men xabarga ishonaman» Die Nachricht ist richtig «xabar to'g'ri»--- Ich hoffe, dass die Nachricht richtig ist «Men xabarning to'g'ri ekanligiga ishonaman». Lekin Ich hoffe Sardor «Men Sardorga ishonaman» gapi Sardor ist fertig «Sardor tayyor» tuzilmasiga mos kelmaydi va shu sababli Ich hoffe, dass Sardor fertig ist («Men Sardorning tayyor bo'lishiga ishonaman») gapi yuqoridagilarning hosilasi emas.[T.Bushuy,Sh.Safarov.2007.58].

Gaplar mantiqiy va mazmuniy jihatdan mos kelmasligining to'rt asosiy sharti ajratiladi:

1. Mantiqan mos kelmaslik;

2. Qarama-qarshi fikrlar ifodasi;
3. Ot va predikat semantikasining mos kelmasligi;
4. Nutqiy muloqot muhiti.

Bu shartlar asosidagi tahlil gap ma'nosini faqatgina ichki strukturaga tayangan holda tavsiflash mumkin emasligidan darak beradi.

Gapning mazmuniy asosini tavsiflash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, R.Jekendoff va uning izdoshlari bajargan tadqiqotlar e'tiborga loyiqdir.

«Asosiy mavzu (tematik) munosabatlari» (Thematic relations) nazariyasining asoschisidir (Jackendoff 1976; 1972).

Ushbu nazariyaga binoan gapning mazmuniy tavsifi ushbu gap vositasida ifodalanayotgan (uzatilayotgan) axborotning formal xususiyatlarini yoritishdir. Axborotni uzatish vositalari o'zida til tizimining ma'noviy xususiyatlari bilan bir qatorda, sintaksisga oid qonuniyatlarni ham mujassamlashtirishi lozim. Shunday ekan, eslatilgan nazariy yondashuv ham shakl va mazmun doiralari muvofiqlashuvini taqozo etadi.

Tilshunoslikda gap tuzilishining grammatik me'yori va semantikasining mosligi masalasi doimo dolzarbdir. Grammatik mos kelmaslikning semantik va sintaktik sabablari ham mavjud. Shunga ko'ra pragmatik tahlilga mos keladigan aniqlik nazariyasi shakllanadi.

UMUMIY XULOSALAR

Gapda struktur va funksional xususiyatlarning o'rganilishida gapning sintaktik xususiyatlarining ham o'rni bor. Gap sintaktik birlik sifatida tildagi birliklarni bir-biri bilan bog'lanishida asosiy obyekt hisoblanadi. Chunki gapda barcha birliklar ma'no va grammatik jihatdan bir butunlik tashkil eta oladi. Hozirgi davr tilshunosligida sintaktik a'loqa sifatida gapdagi bog'lanish tushuniladi. To'g'ri so'z sintaksisi ham so'ngi yillarda tadqiq etila boshlandi, biroq baribir sintaksis gap uchun ko'proq mos keladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib gapni yuqorida struktur jihatdan tahlil qildik. Shakl va mazmun munosabati,

mazmuniy sintaksis va sintaktik tahlil ushbu bobni o'rganishda asosiy urg'uda bo'ldi. Bu tushunchalar bir muncha g'arb tilshunosligida atroflicha talqin qilingan. Yana shuni ham ta'kidlash ham kerakki, bu o'rganilish usullari mantiq bilan, sotsiolingvistika bilan hamda kognitiv tilshunoslik bilan bevosita aloqador. Gapning borliqdagi ma'nosi bilan grammatik ma'nosi o'rtasida farqlar mavjud. Albatta tilning bevosita inson bilan, uning ongi bilan aloqador ekanligi hozirda hech kimga sir emas. Ya'ni tilni harakatga keltiruvchi kuch bu insonning tafakkuri va uning aqli. Shu boisdan ham gapdagi mantiqiy tushunchalar ham uchrab turibdi. Gap sintaksisi an'anaviy tilshunoslikdan farq qiladi. Unga ko'ra gap ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratilib tahlil qilinmasdan gapni aktual bo'laklarga bo'lib tahlil qilinishi ushbu bobda yoritilgan. Bundan tashqari bu bobda gaplar mantiqiy va mazmuniy jihatdan mos kelmasligi borasidagi fikrlar ham ifodalangan. Gap faqat bo'laklarning bir-biriga ma'no va grammatik jihatdan mos bo'lishi orqali tuzilmasdan, bevosita nutqiy vaziyat ham muhim o'rin tutishi ko'zda tutiladi. Bunda tildan tashqari omillarning ham borligi nazarda tutilyapti. Alohida olingan gapning ma'nosi gapning to'liq ma'nosiga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Shu o'rinda mantiq gapda muhim sanaladi. Taniqli tilshunoslar I.N. Murzin va I.P.Raspapovlar sintaktik derevatsiya hodisasini gap misolida tushunadilar. Derevatsiya transformatsiyaning hosilasi deb tushunadilar. Amerika tilshunoslari, jumladan Harris til strukturasi anglab yetishda gap strukturasi asosiy o'rinda turishini ta'kidlaydi.